

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING TARKIBIY TUZILISHI VA ULARNING DINAMIK TAHLILI

STRUCTURAL COMPOSITION OF LOCAL BUDGET REVENUES IN UZBEKISTAN AND THEIR DYNAMIC ANALYSIS

¹Sharopov Dilshodjon
Raxmatullayevich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada O'zbekistonda mahalliy budjet daromadlarining tarkibiy tuzilishi va ularning dinamik o'zgarish tendensiyalari tahlil qilingan. Mahalliy budjet daromadlarining asosiy manbalari – soliqli va nosoliq tushumlar, transfertlar hamda boshqa moliyaviy manbalarning ulushi va vaqt mobaynidagi o'zgarish sur'atlari o'rganilgan. Shuningdek, hududlar kesimida daromadlar shakllanishining o'ziga xos jihatlari va budjet barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar baholangan. Qolaversa, maqolada daromadlar bazasini diversifikatsiya qilish hamda budjet prognozlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Eng. - The article analyzes the structural composition of local budget revenues in Uzbekistan and their dynamic trends over time. The main sources of local budget revenues—tax and non-tax receipts, transfers, and other financial resources—are examined in terms of their share and rate of change over the years. Additionally, the study assesses the specific characteristics of revenue formation across regions and the factors influencing budget stability. Furthermore, the article contributes to the development of scientific conclusions aimed at diversifying the revenue base and improving the budget forecasting system.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ mahalliy budjet, budjet daromadlari, soliq tushumlari, nosoliq daromadlar, budjet transfertlari, tarkibiy tuzilma, dinamik tahlil, hududiy moliya, budjet barqarorligi.

❖ local budget, budget revenues, tax revenues, non-tax revenues, budget transfers, structural composition, dynamic analysis, regional finance, budget sustainability.

Kirish.

O'zbekistonda budjet tizimini isloh qilish jarayonlari sharoitida mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularning daromadlar bazasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahalliy budjetlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy ta'minlash, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish

hamda aholi farovonligini oshirishda asosiy moliyaviy manba hisoblanadi.

So'nggi yillarda budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, ayrim soliq turlarini mahalliy budjetlar ixtiyoriga o'tkazish hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar mahalliy budjet daromadlarining tarkibiy tuzilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Natijada, daromadlar manbalari diversifikatsiyasi, soliq tushumlari

ulushining o'zgarishi va budget transfertlariga bog'liqlik darajasida muayyan dinamik tendensiyalar shakllandi.

Shu munosabat bilan mahalliy budget daromadlarining tarkibiy tuzilishini kompleks tahlil qilish, ularning dinamikasini baholash hamda barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu masalalar tizimli tahlil qilinib, mahalliy moliyani boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xorij olimi R. Bird va E. Slackning tadqiqotlarida ko'chmas mulk soliqlarini rivojlanayotgan mamlakatlarda mahalliy budgetlar uchun barqaror daromad manbai sifatida ko'rsatadi. Olimlar amaliy muammolar sifatida baholashdagi noaniqliklar, kadastr va bozor qiymatlari o'rtasidagi tafovut hamda ma'muriy cheklovlarni alohida ta'kidlaydi. Shu bilan birga, soliq tizimini isloh qilishda bosqichma-bosqich joriy etish, mustahkam kadastr bazasini yaratish va mustaqil baholovchilardan foydalanish zarurligini ilgari suradi. Shuningdek, mahalliy hokimiyat vakolatlarini kengaytirish va ochiq-oshkora axborot almashinuvi muhimligini qayd etishadi [1].

Iqtisodchi olimlar M. Keen va K. Konradlarning ilmiy izlanishlarida ko'chmas mulk soliqlarini tizim jihatdan oddiy, samarali va adolatli shaklda tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi. Qolaversa, baholash uslublari va soliq stavkalarining iqtisodiy ta'sirini, shuningdek, siyosiy kelishuvlar zarurligini ko'rsatadi. Soliq ma'muriyati faoliyatini takomillashtirish, ma'lumotlar bazalarini birlashtirish va soliq tushumlarini barqarorlashtirishni muhim yo'nalish sifatida ko'radi. Ular xalqaro tajribani milliy islohotlarga mos ravishda qo'llash tarafdori sifatida fikr bildirishgan [2].

Mahalliy olima U. Yuldashevaning fikricha, O'zbekistonda ko'chmas mulk

soliqlarida asosiy muammo kadastr va bozor qiymatlari o'rtasidagi katta tafovut ekanligini ko'rsatadi. U baholash uslubiyatini yangilash, ommaviy baholash va qiymatlarni indeksatsiya qilishni joriy etishni taklif qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan, jumladan geografik axborot tizimlari va elektron kadastr bazasidan foydalanish orqali ma'lumotlarni integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Bu usullar mahalliy budget daromadlarini oshirish va soliq adolatini mustahkamlashga xizmat qiladi, degan xulosaga keladi [3].

Mahalliy olimlar I. Niyazmetov, S. Voronin, B. Koraboyev va D. Ugaylarning ilmiy tadqiqotlarida, O'zbekistonda mol-mulk va yer soliqlarini yagona yondashuv asosida modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Ular soliq bazasini bozor qiymatlariga yaqinlashtirish, yillik qayta baholash tizimini joriy etish va tariflarni tabaqalashtirishni taklif etadi. Koraboyev soliq imtiyozlarini tartibga solish, shikoyat qilish mexanizmlarini yaratish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash muhimligini qayd etadi. Ularning takliflari amaliy tajriba loyihalari asosida sinovdan o'tkazilishi lozimligi ham ta'kidlanadi [4].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, statistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy hamda statistik materiallarning ishonchliligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mahalliy budget O'zbekiston Respublikasining budget tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy bazani tashkil etadi. Mahalliy budget tizimi mahalliy talab ehtiyojlarni to'liqroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda


amalga oshiradigan tadbirlar bilan to'g'ri olib borish imkonini beradi.

Mahalliy budjetning daromadlar bazasi ko'paygan sari, mahalliy hokimliklar hududlarining iqtisodiyoti barqarorlashadi va yuksaladi.

Mahalliy budjetning mavqeini yanada oshirish hukumatning budjet siyosati

samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi muhim ahamiyatga molikdir.

Kichik biznes va tadbirkorlik sohalari bo'yicha faoliyatlar ko'paysa, avvalambor aholi ish bilan ta'minlanadi va subyektlar to'laydigan soliq orqali budjet mablag'lari yuksaladi.



1-rasm. Mahalliy budjet daromadlarining guruhlanishi¹

Mahalliy budjetning davlat budjet siyosatidagi tutgan o'rni mahalliy budjet daromadlarini tashkil etish hamda uning tarkibini belgilashda moliyaviy asos hisoblanadi.

Mahalliy budjet moliyaviy mustaqilligini ta'minlash uchun ularning daromadlar bazasini ham mustahkamlash lozim. Buning uchun daromad olishni mahalliy boshqaruv organlarini iqtisodiy bazani rivojlantirishga va o'z qaramog'idagi hududlarga investisiya jalb qilishga xarakatlantiradi va natijada soliq tushumlarini ko'paytiradi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlariga mahalliy soliq va tushumlar doirasida soliq siyosatini yurgizishda imkoniyat berilishi resurslarni samarali boshqarishga rag'bat uyg'otadi.

Har yili davlat budjeti parametrlarini belgilashda har bir viloyat uchun umumdavlat

solig'ining har bir turi bo'yicha ajratmalar me'yori belgilanadi. Umumdavlat solig'idan ajratmalar me'yorining yillik o'zgarishi soliq daromadini hududlar orasida qisman qayta taqsimlashni ko'zda tutadi.

Bunday mexanizm mahalliy hokimliklarni hududlarning iqtisodiy va soliq bazasini rivojlantirishda rag'batini pasaytiradi, ularni soliq tushumlarini yaxshilashdan manfaatdor etmaydi.

Bunday yondashuv moliyaviy rejalar va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Mahalliy budjetning mavqeyini yanada oshirish hukumatning budjet siyosatini samaradorligini oshirishda xizmat qiladigan muhim omil ekanligi ahamiyatga molikdir.

¹ Muallif tadqiqotlari natijasida shakllantirildi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining mahalliy budjet daromadlarining 2019-2023-yillardagi dinamikasi tahlili [6]

Ko'rsatkichlar	Yillar (mlrd.so'm)				
	2019	2020	2021	2022	2023
Davlat budjeti daromadlari	102 627,6	128 460,0	127 970,0	148 388,0	184 509,0
Mahalliy budjet daromadlari	35 134,2	27 702,9	35 173,0	47 390,3	55 728,9
Farqi(+;-)	- 67 493,4	-100 757,1	- 92 797,0	-100 997,7	-128 780,1
Ulushi %	34,2	21,6	27,5	31,9	30,2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari keyingi yillarda izchil o'sib borgan. Shu bilan birga, mahalliy budjet daromadlari davlat budjeti daromadlariga nisbatan yanada tezroq sur'atlarda oshgan. Jumladan, 2019-yilda mahalliy budjet daromadlari 35 134,2 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 27 702,9 mlrd. so'mni tashkil etib, davlat budjeti daromadlariga nisbatan 23,6 foizni tashkil qilgan. Shunga qaramasdan, mahalliy budjet daromadlarining davlat budjetidagi ulushi respublika budjeti ulushiga nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda. 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 35 173,0 mlrd. so'mni tashkil etib, jami davlat budjeti daromadlariga nisbatan 27,5 foizni tashkil qilgan. 2022-yilda esa mahalliy budjet daromadlari 47 390,3 mlrd. so'mga yetib, davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 31,9 foizni tashkil etgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2019-2022-yillar oralig'ida mahalliy budjet daromadlarining o'sish sur'atlariga pandemiya davrining salbiy ta'siri kuzatilgan. Shunga qaramasdan, 2023-yilda davlat budjeti daromadlari 184 509,0 mlrd. so'mni tashkil etgan holda, mahalliy budjet daromadlari 55 728,9 mlrd. so'mga yetkazilgan va ularning ulushi 30,2 foizni tashkil etib, ijobiy natija qayd etilgan. Bu esa mahalliy budjet daromad bazasining mustahkamlanishi hamda tushumlarni undirish mexanizmlarining samarali yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi.

Mahalliy budjetning eng muhim va asosiy daromad manbalari mahalliy soliqlar va

yig'imlar hisoblanadi. Ular hozirga qadar mahalliy budjet daromadlarining o'sish sur'atlariga mutanosib ravishda shakllantirilib, bosqichma-bosqich takomillashtirib borilmoqda. Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tish jarayonida amalga oshirilgan va davom etayotgan islohotlar mahalliy budjet mavqeini oshirish, uning daromad manbalarini mustahkamlashga qaratilgan aniq yo'nalishlarni belgilab berdi.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar joriy etilgan davrdan buyon ularning tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar nafaqat miqdoriy jihatdan, balki mazmun-mohiyat jihatidan ham keng qamrovli bo'ldi. Natijada yangi soliq turlari joriy etilib, ular amaliyotda samarali qo'llanilmoqda.

Respublikada mahalliy soliqlarning undirilishi bo'yicha 2019-2023-yillar kesimidagi tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, mahalliy soliqlar bo'yicha davlat budjetiga tushumlar 2019-yildagi 35 134,2 mlrd. so'mdan 2023-yilda 55 728,9 mlrd. so'mga yetib, jami 20 594,7 mlrd. so'mga oshgan. Shu davrda mahalliy soliqlarning davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 2019-yilda 34,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 30,2 foizni tashkil etgan. 2021-2022-yillarda ushbu ulush nisbatan pasaygan bo'lsa-da, keyingi davrda yana tiklanish tendensiyasi kuzatilgan.

Shuningdek, 2019-yilga nisbatan 2023-yilda mol-mulk solig'i 2 791,9 mlrd. so'mga, yer solig'i 4 576,4 mlrd. so'mga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 476,5 mlrd. so'mga, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq 2 700,0 mlrd.

soʻmga hamda aylanmadan olinadigan soliq 418,3 mlrd. soʻmga oshgani kuzatiladi. Natijada 2023-yil yakunlari boʻyicha mahalliy soliqlarning mahalliy budjet daromadlaridagi ulushi 54,7 foizga yetgan.

Umuman olganda, keltirilgan tahlillar mahalliy budjet daromad bazasini kengaytirish, soliq tushumlarini oshirish va mahalliy moliyaviy mustaqillikni taʼminlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalarini yaqqol namoyon etadi.

Respublikamiz soliq tizimida mavjud mahalliy soliq va yigʻimlarga xos boʻlgan umumiy xususiyatlarning ayrimlari sifatida quyidagilarni qayt etish mumkin:

mahalliy soliq va yigʻimlar mahalliy davlat hokimiyati idoralari tasarrufida boʻlgan hududlar ehtiyoji uchun ishlatiladi;

ularning asosiy qismi mahalliy budjetning bevosita oʻzlari tomonidan joriy etiladi;

ularning huquqiy jixatdan tartibga solishda mahalliy budjetlaga bir qadar vakolatlar berilgan boʻlsada, respublika qonunchiligi bilan ham hisoblashishini talab etadi va boshqalar.

Shuningdek mahalliy soliq va yigʻimlarning muxim xususiyatlaridan biri, ularni belgilash usuliga koʻra ikki guruhga, yaʼni respublika qonunchiligi bilan joriy etiladigan va mahalliy davlat hokimiyati idoralari qonunchiligi bilan joriy etiladigan mahalliy soliq va yigʻimlarga boʻlinishidir.

2-jadval

2019-2023-yil davomida soliq toʻlovchilar tomonidan toʻlangan aylanmadan olinadigan soliq tushumi qatʼiy belgilangan va Ad valoram soliq stavkalari tahlili [5]

Koʻrsatkichlar	Yillar (mlrd. soʻm)				
	2019	2020	2021	2022	2023
Mahalliy budjet soliqlar- jami	35 134,2	27 702,9	35 173,0	47 390,3	55 728,9
Aylanmadan olinadigan soliq	1 988,7	1 354,0	1 649,0	2 513,0	2 393,0
Ulushi %	5,7	4,9	4,7	5,3	4,3
Shundan stavkalar boʻyicha					
4 foizli	967,0	580,2	690,3	1 497,8	1 253,6
3 foizli	412,9	319,3	497,0	519,6	68,1
2 foizli	601,4	449,3	455,3	469,3	183,6
1 foizli	5,3	3,3	4,2	15,9	29,2
Boshqa stavkalar	2,1	1,9	2,2	10,4	-
Qatʼiy stavka	-	-	-	-	858,5

Maʼlumotlardan koʻrinadiki, 2023-yil davomida 360 222 nafar xoʻjalik yurituvchi subyektlardan jami 2 393,0 mlrd. soʻm aylanmadan olinadigan soliq undirilgan. Shundan, qatʼiy stavkada soliq toʻlovchi 49 582 nafar xoʻjalik yurituvchi subyektlardan 858,5 mlrd. soʻm, aylanmadan 4 foizlik stavkada soliq toʻlovchi 244 898 nafar xoʻjalik yurituvchi subyektlardan 1 253,6 mlrd. soʻm tushum taʼminlangan.

Shuningdek, 3 foizlik stavkada soliq toʻlovchi 18 428 nafar xoʻjalik yurituvchi subyektlardan 68,1 mlrd. soʻm, 2 foizlik stavkada soliq toʻlovchi 34 433 nafar xoʻjalik

yurituvchi subyektlardan 183,6 mlrd. soʻm hamda 1 foizlik stavkada soliq toʻlovchi 12 881 nafar xoʻjalik yurituvchi subyektlardan 29,2 mlrd. soʻm mablagʻlar mahalliy budjet daromadlariga yoʻnaltirilgan.

Mazkur tahlillar shuni koʻrsatadiki, xoʻjalik yurituvchi subyektlarning faoliyat turlari kesimida aylanmadan olinadigan soliq oʻrniga ularni qatʼiy soliq rejimiga bosqichma-bosqich oʻtkazish maqsadga muvofiq boʻlib, bu soliq tushumlarini barqarorlashtirish, hisob-kitoblarni soddalashtirish va maʼmuriy xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

3-jadval

Respublikada 2019-2023-yil davomida aylanmadan olinadigan soliq tushumi tahlili [5]

Ko'rsatkichlar	Yillar (mlrd. so'm)					
	2019	2020	2021	2022	2023	Izoh
<i>Aylanmadan olinadigan soliq</i>	1 988,7	1 354,0	1 649,0	2 513,0	2 393,0	-
<i>Shundan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'langan soliq</i>	204,3	209,3	234,7	536,8	649,0	-
<i>Ulushi %</i>	10,3	15,5	14,2	21,4	27,1	-
<i>Jumladan, o'zini-o'zi band qilgan jismoniy shaxslar uchun soliq</i>	-	-	-	-	-	-

Mahalliy budjetlarni shakllantirishda xorijiy investorlarni jalb etish muhim omil hisoblanadi. Bu orqali hududlarning iqtisodiy salohiyati kengayadi, soliqqa tortiladigan baza mustahkamlanadi hamda mahalliy daromadlar manbalari barqarorlashadi.

Mahalliy budjet xarajatlarini daromadlari bilan taqqoslash natijasida "o'z daromad bazasi bilan ta'minlanganlik" ko'rsatkichini aniqlash mumkin. Budjet tizimida mahalliy budjet bo'g'inining, ayniqsa, alohida hudud budjetining yuqori budjet bo'g'ini bilan o'zaro munosabatlarini tashkil etishda uning donor (o'z mablag'i hisobidan boshqa hududlarni qo'llab-quvvatlovchi) yoki resipiyent (o'z daromad bazasi yetarli bo'lmagan holda boshqa budjetdan mablag' oluvchi) turga mansubligini farqlash zarur.

Budjetlar o'rtasida daromad va xarajatlarning taqsimlanishi vertikal va gorizontal mutanosibsizlikka olib kelishi mumkin. Vertikal mutanosibsizlik mahalliy budjet xarajatlarining o'z manbalaridan shakllanadigan daromadlardan ortib ketishi bilan izohlanadi. Gorizontal mutanosibsizlik esa turli hududlar kesimida daromad va xarajatlar hajmining nomutanosib taqsimlanishi natijasida yuzaga keladi. Bu holat iqtisodiy faollik, tabiiy resurslar va demografik omillarning hududlar bo'yicha notekis joylashuvi bilan bog'liq.

Vertikal va gorizontal mutanosibsizlikni bartaraf etish maqsadida respublika budjetidan mahalliy budjetlarga turli shakldagi moliyaviy yordamlar ajratiladi. Jumladan, subvensiyalar,

maqsadli subsidiyalar hamda budjetlararo transfertlar shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari daromadlarini shakllantirishda budjetlararo transfertlarning ulushi sezilarli darajada yuqori bo'lib qolmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublika budjetidan hududlarga ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2019-yilda 16 615,5 mlrd. so'm, 2020-yilda 19 487,8 mlrd. so'm, 2021-yilda 30 361,5 mlrd. so'm, 2022-yilda 41 397,2 mlrd. so'm va 2023-yilda 46 011,7 mlrd. so'm miqdorida mablag'lar ajratilgan.

Mazkur ko'rsatkichlar hududlar moliyaviy mustaqilligini ta'minlash va mahalliy budjetlarning barqaror daromad bazasini shakllantirish dolzarb vazifa ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Umuman olganda, tahlillar hududlar moliyaviy mustaqilligini oshirish, mahalliy daromad bazasini kengaytirish hamda budjetlararo transfertlarga qaramlikni bosqichma-bosqich kamaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mahalliy budjetni balanslashtirish maqsadida soliq va boshqa ko'rinishidagi daromadlar manbalarini turli darajadagi budjet o'rtasida quyidagi tamoyillarga asosan taqsimlash amalga oshiriladi:

daromadlar taqsimlanishining yagona tamoyillar va yondashuvlar asosida amalga oshirilishi;

pog'onalardagi budjet bo'g'inlari o'z daromadlarini xarajatlar vakolatlarini bajarish uchun asosiy resurslar manbai bo'lishi;

soliq ma'murchiligi va soliq siyosatida daromad manbalari to'g'ri taqsimlanish tamoyillariga amal qilinishi;

budjetlararo tartibga soluvchi transfertlar mahalliy budjet o'rtasida shakllangan usullar asosida aholi soni va budjet

ta'minoti bo'yicha taqsimlanishini yo'lga qo'yilishi.

Davlat va hududiy budjetlar daromadlarini oshirishda qo'shimcha zaxiralarini aniqlashda manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish kerak.

Mol-mulk va yer soliqlarini hisoblashda ko'chmas mulk obyektlarini bozor qiymatiga yaqin bo'lgan kadastr narxi asosida hisoblashni ma'lum bosqichlarda joriy etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bird R. M., Slack N. E. (ed.). *International handbook of land and property taxation*. – Edward Elgar Publishing, 2004. <https://www.e-elgar.com/shop/gbp/international-handbook-of-land-and-property-taxation-9781843762540.html>
2. Keen M., Konrad K. A. *International tax competition* // Max Planck Institute for Tax Law and Public Finance. – 2011. – C. 19-27. <https://www.e-elgar.com/shop/gbp/the-theory-of-taxation-and-public-economics-9781786432838.html>
3. Asanaliyevna Y. U. et al. *Xorijiy davlatlar tajribasida mahalliy budjetlar moliyaviy mustaqilligini ta'minlash* // Global Science Review. – 2025. – T. 13. – №. 12. – B. 555-567.
4. Niyazmetov, I. M., Voronin, S. A., Koraboev, B. U., & Ugay, D. S. (2021). *The main directions of reforming property taxes (on the example of the Republic of Uzbekistan)*. <https://vestnik-ku.ru/images/2021/1/2021-1-5.pdf>
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – <https://my.soliq.uz>
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2023). *Hududiy byudjetlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha tahliliy hisobot*. – Toshkent.